



XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2023 - yil 9 - mart

VI-46-31-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining kotibi to‘g‘risida

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2022-yil 23-dekabrda VI-42-162-9-0-K/22-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining reglamenti”ning II bobi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasi kotibi **Ergashev Rustam Umidjon o‘g‘li** Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasi kotibligidan chiqarilsin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasi kotibi etib viloyat hokimligi tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish, eksportga ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlash guruhi rahbari **Qo‘chqorov Elyor G‘ulom o‘g‘li** o‘tkazilsin;

3. Mazkur qaror Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasiga yuborilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi o'rinbosari



M.Xodjiyev